



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2022- YIL  
YANVAR-APREL**





# Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

2022- yilning yanvar-aprel oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **1451,1** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **100,3 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.






# Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-aprel oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1451,1</b>	<b>115,4</b>	<b>1091,0</b>	<b>244,7</b>
<b>Nukus sh. tumanlar:</b>	<b>541,0</b>	<b>6,7</b>	<b>505,0</b>	<b>29,3</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>55,2</b>	<b>0,0</b>	<b>28,9</b>	<b>26,3</b>
<b>Beruniy</b>	<b>71,0</b>	<b>0,0</b>	<b>39,6</b>	<b>31,4</b>
<b>Bo'zotov</b>	<b>20,6</b>	<b>0,0</b>	<b>18,7</b>	<b>1,9</b>
<b>Qorao'zak</b>	<b>20,5</b>	<b>0,1</b>	<b>17,9</b>	<b>2,5</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>30,0</b>	<b>2,3</b>	<b>20,7</b>	<b>7,0</b>
<b>Qo'ng'iro't</b>	<b>120,3</b>	<b>63,5</b>	<b>49,4</b>	<b>7,4</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>19,8</b>	<b>0,0</b>	<b>12,7</b>	<b>7,1</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>34,9</b>	<b>1,8</b>	<b>28,5</b>	<b>4,6</b>
<b>Nukus</b>	<b>70,2</b>	<b>0,0</b>	<b>50,1</b>	<b>20,1</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>85,8</b>	<b>6,3</b>	<b>70,9</b>	<b>8,6</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>35,6</b>	<b>0,3</b>	<b>32,0</b>	<b>3,3</b>
<b>To'rtko'l</b>	<b>158,7</b>	<b>34,0</b>	<b>94,6</b>	<b>30,1</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>48,8</b>	<b>0,0</b>	<b>35,5</b>	<b>13,3</b>
<b>Chimboy</b>	<b>37,9</b>	<b>0,0</b>	<b>12,6</b>	<b>25,3</b>
<b>Shomanay</b>	<b>19,5</b>	<b>0,0</b>	<b>14,9</b>	<b>4,6</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>81,3</b>	<b>0,4</b>	<b>59,0</b>	<b>21,9</b>

2022- yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 115,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 58,4 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 5,6 % punktga kamayib, 7,9 % ni tashkil etdi.



**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qo'ng'iro't tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 52,8 % i yoki 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 80,4 %), To'rtko'l tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 21,4 % i yoki 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 90,7 martaga ko'p) va Kegeyli tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 7,8 % i yoki 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 149,8 %) ga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2022- yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 75,2 % i to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 1,7 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 101,5 % ni tashkil etgan holda 1091,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



75,2

2022- yil  
yanvar-aprel


73,5

2021- yil  
yanvar-aprel



**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus shahri (505,0 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 93,4 %), To'rtko'l tumani (94,6 %), Taxiotosh tumani (70,9 mlrd. so'm yoki 107,4 %), Ellikqal'a tumani (59,0 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 72,6 %), Nukus tumani (50,1 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 95,8 %) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **16,9 %** ni tashkil etdi yoki **244,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **137,4 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **54,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1396,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **3,8%** va **96,2 %** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi  
2022- yil yanvar-aprel oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **52,1 %** i yoki 756,4 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**10,6 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 80,1 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **10,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 438,2 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **57,9 %** ni tashkil etdi.

**57,9 %**

**31,5 %**


Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **238,1 mlrd. soʻm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **31,5 %** ni tashkil etdi.



# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-aprel oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1451,1</b>	<b>100,3</b>	<b>100,0</b>
<b>Nukus sh.</b>	<b>541,0</b>	<b>101,1</b>	<b>37,3</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Amudaryo</b>	<b>55,2</b>	<b>95,2</b>	<b>3,8</b>
<b>Beruniy</b>	<b>71,0</b>	<b>100,2</b>	<b>4,9</b>
<b>Bo'zotov</b>	<b>20,6</b>	<b>91,1</b>	<b>1,4</b>
<b>Qorao'zak</b>	<b>20,5</b>	<b>86,6</b>	<b>1,4</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>30,0</b>	<b>105,0</b>	<b>2,1</b>
<b>Qo'ng'iro't</b>	<b>120,3</b>	<b>90,2</b>	<b>8,3</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>19,8</b>	<b>99,5</b>	<b>1,4</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>34,9</b>	<b>86,1</b>	<b>2,4</b>
<b>Nukus</b>	<b>70,2</b>	<b>101,5</b>	<b>4,8</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>85,8</b>	<b>82,0</b>	<b>5,9</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>35,6</b>	<b>106,7</b>	<b>2,5</b>
<b>To'rtko'l</b>	<b>158,7</b>	<b>124,3</b>	<b>10,9</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>48,8</b>	<b>116,7</b>	<b>3,4</b>
<b>Chimboy</b>	<b>37,9</b>	<b>113,5</b>	<b>2,6</b>
<b>Shomanay</b>	<b>19,5</b>	<b>95,4</b>	<b>1,3</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>81,3</b>	<b>97,3</b>	<b>5,6</b>

# Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,7 % ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 5,9 % punktga kamayib, 67,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 7,5 % punktga ko'payib, 29,9 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 18,3 % ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 5,1 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 81,7 % ni tashkil etdi.

## ulushi % da

38,6

23,4

76,6

18,3

81,7



Yirik qurilish  
tashkilotlari




Kichik korxonalar  
va mikrofirmalar

2021- yil  
yanvar-aprel

2022- yil  
yanvar-aprel


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 20,1 % punktga kamaydi va 9,4 % ni tashkil etdi. Qolgan, 90,6 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 20,1 % punktga ko'paydi.



# Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-aprel oylari



ulushi % da



**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (61) 224-92-14  
(61) 222-75-91**

